

Uzbekistan Airways Technics – MRO Central Asia 5-xalqaro konferensiyasining asosiy ishtirokchisi

2025 25 Noyabr

Uzbekistan Airways va Uzbekistan Airways Technics mutaxassislari 2025-yil 25-26-noyabr sanalarida Toshkent shahrida o'tkaziladigan MRO Central Asia 5-xalqaro ko'rgazma va konferensiyasida faol ishtirok etishdi.



Konferensiya aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (TXK va T) sohasiga bag'ishlangan bo'lib, Markaziy Osiyo, Yevrosiyo, Kaspiy mintaqasi hamda Kavkaz mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish uchun yirik platforma vazifasini o'tadi.

UAT ishtiroki texnik markazimizning yuksak darajadagi malakasini namoyish qilish, TXK va T sohasida innovatsion yechimlarni joriy etish masalalarini muhokama qilish hamda to'g'ridan-to'g'ri xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratdi.



Bunday ahamiyatga molik tadbirning Toshkentda o'tkazilishi va unda UATning ishtiroki O'zbekistonning aviatsiya xavfsizligi hamda texnik shaylik sohasidagi eng

yuksak xalqaro standartlarga rioya qilishga intiluvchi mintaqaviy markaz sifatidagi mavqeini yana bir bor tasdiqladi.